

Амирга қарши бир неча марта халқ исёнлари уюштирди. Шаҳар мудофасини мустаҳкамлаб, каттиқ химоя истеҳкомларини вужудга келтирди[9:35-36]. Бухоро амирлиги даврида Китоб, Шаҳрисабз, Яккабоғ шаҳарлари ўзининг маъмурий-худудий тузилиши, мустаҳкам ҳарбий қалъага эга бўлиши, маъмурий бошқарувда маҳаллий задагонларнинг кўпчиликини ташкил этиши билан ажралиб турган.

Ўзор шаҳри Қашқадарё ирмоқлари қуйиладиган Ўзор дарё сув ҳавзаси билан боғланган, унинг шимоли-шарқий қисмида жойлашган Шаҳрисабз тоғ тизмалари билан боғланиб, шарқий қисми Шеробод-Бойсун тоғларининг ғарбий тизмаларига бориб тақалади. Шаҳар аҳолисининг асосий қисми Ўзор дарёсининг шимоли-ғарбий қисмида истиқомат қилади. Шунингдек, Лангардарё суви билан Ўзорнинг Янгикент Тенге-Харам қишлоқлари суғорилади. Ўзор шаҳрида 850 оила истиқомат қилиб, шаҳар марказида Афғонбоғ ва Эскибоғ кентлари аҳоли гавжум маҳалла сифатида тарихий манбаларда акс этган.

Шаҳарлар ҳақида сўз борар экан, қайд этиб ўтиш лозимдирки, кўриладиган давр мобайнида Ўрта Осиё ҳудудида ҳажми, аҳолисининг сони ва жойлашуви, ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг айрим жиҳатлари билан бир-биридан фаркланувчи кўплаб катта ва кичик шаҳарлар мавжуд эди. Шу билан бирга шаҳарларни тавсифлашда эътиборга лойиқ умумий ҳолатлар ҳам мавжуд. Улар Ўрта Осиё шаҳарлари тараққиётининг айрим умумий ва хусусий жиҳатларини аниқлашда ёрдам беради. Бу ҳолат, айниқса шаҳарларнинг ташқи кўринишида яққол кўзга ташланади. Табиийки, савол туғилади-сўнгги ўрта аср шаҳарлари қандай ва қай тарздаги ташқи кўринишига эга эди? Қайд этиб ўтиш жоиздирки, Ўрта Осиёнинг сўнгги ўрта асрларга қадар мавжуд бўлган, кўриладиган даврга келиб тараққиёт пиллапоёлари ва инкирозли даврларни ўз бошидан кечирган ҳамда айнан мана шу даврга бу қадим ўлкада вужудга келган янги шаҳарлар ҳам деворлар билан ўраб олинган эди. Шаҳарларнинг деворлар билан ўраб олиниши Ўрта Осиё шаҳарларини тавсифлашда уларнинг ташқи кўринишини белгилайдиган асосий ҳолатлардан биридир.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ананьев. Шерабадская долина. Стр-102-103.
2. В.Безобразов. «Очерки Шахрисабзского бекство» асари.
3. Фитрат «Амир Олимхоннинг ҳукмронлик даври». 8-9 бет.
4. Маев Н.А. Материалы для статистики Туркестанского края. С.Петербург. Военное изд. тво. 1879. С. 154-157.
5. Маев Н.А. Материалы для статистики Туркестанского края. Выпуск с Петербург. 1879. С. 78-85.
6. О.Жўракулов. Қашқадарё мангитлари. Т.ф. 1993 йил. 38-бет.
7. О.Пармонов, А.Бердиев. Китоб тумани. Фан нашриёти, 1996 йил. 40-бет.
8. О.Пармонов., А.Бердиев. Китоб тумани. Фан нашриёти, 1996 йил. 30-31 бетлар
9. Садриддини Айний асарлари. 1-том. Т.: 1963 йил, 182-бет.
10. Территория и население Бухары и Хорезма. Стр-95-96.

BOLTAJON SODIQOV- TARIXIY VA ADABIY MULOHAZA

Choriyev Sanjar Hamzayevich,
Termiz davlata universiteti
Jahon tarixi kafedrasi o'qituvchisi

Анотатсия: “О‘қитувчи инсон руҳининг муҳандиси, яшар авлод бахтининг наққашси, ҳайкалтароши, меҳрибон ва талабчан устози. Ана шу касб фидойиси бўлган инсонгина бу борда муваффақиятга еришадиган”- Boltajon Sodiqov.

Kalit soʻzlar: Zarobogʻ, Boltaniyoz, niyoz, Muhammadsodiq, Termiz pedagogika bilim yurti, “Tinchlik uchun”, “Surxon kuylari”, “Malik va ilik”, “Yodgorlik archa”.

Аннотация: «Педагог – инженер человеческой души, живописец и скульптор счастья молодого поколения, добрый и требовательный педагог. В этом плане преуспеет только человек, преданный этой профессии» - Болтаджон Садыков.

Ключевые слова: Zarobog, Boltaniyoz, Niyoz, Muhammadsadiq, Термезский педагогический университет, «За мир», «Сурханские наигрыши», «Малик и Илик», «Мемориальный можжевельник».

Annotation: «The teacher is an engineer of the human soul, a painter and sculptor of the happiness of the young generation, a kind and demanding teacher. Only a person who is devoted to this profession will succeed in this regard» - Boltajon Sadikov.

Key words: Zarobog, Boltaniyoz, Niyoz, Muhammadsadiq, Termiz Pedagogical University, «For peace», «Surkhan tunes», «Malik and Ilik», «Memorial juniper».

Hayotda shunday kishilar boʻladiki, ular bilan bir daqiqagina orom olib suxbatlashsangiz, ming yillik dardlardan forigʻ boʻlganday boʻlasiz. Boltajon Sodiqov ham shu toifa insonlardan biri hisoblanadi. Vohamizning soʻlim qishloqlaridan biri Zarobogʻ qishlogʻida Nomozxoji bobo oʻgʻli Muhammadsodiq akaning xonadonida yosh avlodning sevimli shoiri, maʼnaviy ustoz, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasining aʼzosi, shoir Boltajon Sodiqov 1932 yilning 1 yanvarida tugʻildi. Shoirni boltadak mustahkam va keskir boʻlsin deb Boltaniyoz qoʻyishadi. Otasi Muhammadsodiq aka ehtirosli mehnatkash va yaxshi chobogʻon boʻlgan. Shoir 2 yoshligida Muhammadsodiq aka koʻpkari vaqtida fojeali vafot etadi. Onasi Masturabonu esa bir soʻzli, latofatli, vazmin ayol boʻlganlar. Yosh Boltajonning boshiga ogʻir kulfat, musibat tushib, onasi Mastura opa ham shoirning otasi vafotidan keyin, iztirob chekib, bir yildan soʻng, vafot etadi. Singlisi Jamila bilan gʻirt etim boʻlib qolgan Boltaniyoz otasining oʻgay ukasi Mamanazar polvon eshigida tarbiyalanadi. Soʻng bolalar uyiga topshirildi. Ota-ona mehri nasib qilmaganidek, bolalar uyi tarbiyachilarining ham mehri uzoq muddatda yosh Boltaniyoz qalbidan joy ololmasdi. U un uch yil bolalar uyida, yaʼni etimxonada boʻldi. Koʻp yaxshi kishilar tarbiyasini oldi. Shoir 1941-yildan Boltaniyoz singlisi Jamila bilan Sherobodagi 4,10,13-Mehribonlik uyida tarbiyalanib yurgan chogʻlarida yakkayu-yagona singlisi, ota-onasidan yodgorlik qolgan Jamiladan ham judo boʻldi. Shoir shu achchiq hayotini: “Singlim Jamila vafotidan soʻng dunyoda yolgʻiz qolganim uchun qattiq yigʻladim. Shu yigʻlashda etti kun yigʻladim” deb eslaydi.

Termiz shahridagi mehribonlik uyida Boltaniyozning ismidagi “niyoz” atamasi diniy tushuncha degan bahonada oʻchirib,” jon “ soʻzini qoʻshib tugʻilganlik guvohnomasini Sodiqov Boltajon Sodiqovich deb rasmiylashtiriladi [1, B.272]

Yosh Boltajon ilmga chanqoqligini sababli 1948 yili Termiz shahridagi 18-pedagogika bilim yurtiga oʻqishga kiradi. 1952-yil bilim yurtini tugatib, Toshkent davlat pedagogika institutida oʻqishga kiradi. 1956-yil shoir hayotida quvonchli voqea yuz berib, institutni aʼlo baholarga bitirib, pedagog-psixolog ixtisosligi boʻyicha imtiyozli diplom oladi. Soʻngra, oʻzi oʻqigan Termiz pedagogika bilim yurtiga ishga kirib, avval kutubxonachi, soʻngra tarbiyachi va direktor vazifalarida ishladi. **“Oʻqituvchi inson ruhining muhandisi, yosh avlod baxtining naqqashi, haykaltaroshi, mehribon va talabchan ustoz. Ana shu kasb fidoyisi boʻlgan insongina bu borada muvaffaqiyatga erishadi”** – deb, taʼkidlaydi shoir. Mazkur bilim dargohi yosh shoir Boltajon qalbida adabiyotga, sheʼriyatga boʻlgan havasni kuchaytirdi. Bilim yurtidagi adabiyot toʻgaragiga qatnashish, sheʼriyat sirlari olamiga asta-sekin kira borish uning qalbini toʻlqinlantiradi. Shu qiziqishlar, izlanishlar natijasida Boltajonda ilk sheʼrlar paydo boʻla boshladi. Shoirning ilk sheʼri 1951 yili “Sharq yulduzi” jurnalida “Tinchlik uchun” sarlavhasi bilan bosilgan [2,B.7].

Jahon boʻylab yangramoqda
- Tinchlik!- degan kuchli ovoz.
Va tinchlikning hur kaptari,
Koʻklar osha qilur parvoz.....

Ushbu misralar bilan boshlanuvchi bu she'rda ifoda topgan butun dunyoda taralayotgan va yang-rayotgan ovoz insonlarning tinchlik ovozidir. Unda tinchlik qushi- oq kaptarning osoyishta parvozi kuylanadi. Shoir esa barcha kishilarni tinchlik o'rnatish uchun yakdil bo'lishga undaydi.

- Tinchlik! -deydi jahon xalqi
Tinchlik mangu topar qaror
Tor- mor etar yovuzlarni
Tinchlik ulug'shior.....

Ushbu she'rda hayotimizda tinchlik o'rnatish uchun mehnat qilish kerakligi, mehnat tufayligina yurtimizda tinch- totuvlik, osoyishtalik o'rnatilishi kuylangan. Bu bilan shoir yoshlarni ona-vatanini sevishtga, ardoqlashga, uning uchun xizmat

qilishga chaqiradi. O'z kasbini puxta egallagan Boltajon Sodiqov xushmuomilaligi, mexribonligi, shirinso'zligi, jamoatchiligi bilan o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi orasida katta obro' qozondi. Ta'lim-tarbiyani yaxshilashga, uni to'g'ri yo'lga qo'yishga qaratilgan ko'pgina maqolalar yozdi va ma'ruzalar ham qildi. 1966 yili domlani Termiz davlat pedagogika institutiga ishga taklif qilishdi. U 18 yil pedagogika va psixologiya kafedrasining mudiri sifatida ko'pgina ibratli ishlarni amalga oshirdi. Domla Boltajon Sodiqov qaysi auditoriyaga kirmasin, pedagogika va psixologiya fanining qaysi sohasi bo'yicha ma'ruza o'qimasin, tinglovchilar qalbida katta taassurot qoldiradi. Domladagi xushchaqchalik, mehribonlik har bir kishining diqqatini o'ziga tortgan. Umuman, Boltajon Sodiqov adabiy ijodga 50-yillarning o'rtalarida kirib keldi. U o'z iqtidorini kelajagimiz, baxt- quvonchimiz hamda ishlarimizning davomchilari bo'lgan bolalarni so'z san'ati orqali tarbiyalashdek sharaflig ishga bag'ishladi. Shoirning bolalarga atagan dastlabki she'rlari "Surxon kuylari" (1959) to'plamda birinchi marta e'lon qilindi [3, B.37].

Shoirning "Qo'ng'iroqcha" (1983) nomli to'plamga kirgan she'rlarida ham yuqorida aytilgan yutuqlar o'z aksini topgandir. Bu to'plam Boltajon Sodiqovning ijodi bilan ochilib, unda shoirning o'n oltita katta-kichik she'rlari berilgan. Shoirning maktab bilan bog'liq mavzudagi she'rlarida bolalarning o'qituvchilarga muhabbati, ilm dargohini bunyod etgan kattalar mehnatini e'zozlashlari, fanlarni sevishlari va qunt bilan bilim olishlari kabi motivlar rang-barang ko'rinishlarda tasvirlanganini kuzatamiz. Ko'pincha shoir mavzu munosabati bilan tug'ilgan poetik fikrni o'z nomidan osoyishta kayfiyatda, pand-nasihat, didaktika yo'lida, obrazli ifodalash, yoshlik damlarini qadrlashga, uni behuda o'tkazmaslikka undaydi, davrga, zamonga munosib, sog'lom, xushxulq, pokiza qalbli, jamiyat uchun zarur va foydali fuqarolar bo'lib etishishga chaqiradi. Fikrimizning tasdig'i uchun "Maktabim", "To'g'ri yozing", "Asl do'stimsan, kitob", "Birinchi qo'ng'iroq", "Sirli yozuvlar" singari juda ko'p she'rlarini eslatish mumkin.

Boltajon Sodiqovning she'rlari o'zining o'ynoqligi, quvnoqligi, yumorga boyligi, mag'zining to'liqligi bilan o'quvchi e'tiborini tortadi.

Boltajon Sodiqovning "Malik va ilik" (1991) nomli kitobchasi shoir mahoratining o'sib borayotganini ko'rsatadi. Masalan «Boldan shirin bolalar» she'rda bolalarning sho'x- shodonligi, quvnoq hayotlari, asaldan ham shirin so'zligi kuylanadi. Bu bilan shoir bolalar kelajagimiz ekanligi, ularni asrab-avaylashimiz lozimligi, ularga nisbatan mehribon, shirinso'z, muruvvatli bo'lishimiz kerakligini ta'kidlaydi:

Boldan shirin bolalar,
Sho'x, quvnoq shalolalar.
Qalbim qo'ri qatidan.
Xayolim qanotidan
Terayin ol lolalar.....

Boltajon Sodiqov o'zining bolaligidan etim qolib, ota- ona mehriga tashna, bir og'iz shirin so'zga zor bo'lganligini «Yodgorlik archa» (1972 yil 1 yanvar) she'rda ota- onasiz qolgan bolalarga nisbatan mehr- oqibat, etiborli bo'lishni, ularni sevib ardoqlashni uqtiradi, archa daraxti bunga bir timsol bo'ladi.

Boltajon Sodiqov qo'shiqchi-shoir sifatida ham tanilgan. Uning qaqajon bolalarga bag'ishlangan "Bolajonim, o'ynagin", "Ko'zichoq", "Uch og'ayin, uch o'g'lon", "Dadajonim keldilar", "G'izillay-

ver, mashinam”, katta yoshdagilarga atab “Termiz”, “Surxonim”, “Tillo qiz” kabi qo‘shiqlari bunga misoldir. Sodda, ravon, samimiy, obrazli hamda xalqchilligi bilan ajralib turadi. Bu qo‘shiqlarga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi Fattoh Nazarov va Sodiq Mamasoliyev kabi bastakorlar musiqa bag‘ishlaganlar. Shoirning qo‘shiqlari orasida jonajon yurtning chiroyini madh etgan, ota-onalar hurmatini bajo keltirgan, baxtli yoshlik tuyg‘ularini o‘rniga qo‘ygan va ularni qo‘shiq qanotida millionlab kishilar qalbiga etkazganlari ham ko‘pgina. Masalan “Dadajonim keldilar” shunday qo‘shiqlardan hisoblanadi. Bu qo‘shiqda har bir bola ham o‘z otasini sevishi, uni hurmat qilishi kuylanadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Boltajon Sodiqov. “Sexriston”. 272-bet. “Tafakkur” nashriyoti, Toshkent - 2015.
2. Ro‘ziqul Mustafoqulov. “Surxon adiblari bolalarga”. 7-bet. “Yozuvchi” nashriyoti, Toshkent - 2000.
3. Bolta Yoriyev. “Hayrat va g‘ayrat” 37-bet. “San‘at nashriyoti”. Toshkent - 2008.

“PAXTA ISHI”NING MATBUOTDA YORITILISHI

Nazarov Otabek Muzrobovich
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda 1983-1989 yillarda amalga Gdlyan va Ivanov boshchiligidagi tergov guruhi tomonidan amalga oshirilgan «paxta ishi», «o‘zbeklar ishi» nomli o‘ylab topilgan uydirmalarning matbuotda yoritilishi, natijalari, oqibatlari o‘rganilgan. Ayni vaqtda davriy matbuotda shu mavzu yuzasidan yoritilgan maqolalarning xalqini qoralash yoki yolg‘on ayblaovlar bilan qatag‘on qilishni o‘zaro tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: paxta ishi, matbuot, Gdlyan va Ivanov guruhi, matbuot nashrlari, nohaq ayblanganlar, bo‘hton

Аннотация: В данной статье исследуются освещение в СМИ, итоги и последствия «хлопкового дела» и «узбекского дела», проводившихся следственной группой под руководством Гдляна и Иванова в Узбекистане в 1983-1989 гг. В то время, опубликованные статьи на эту тему в периодической печати, подвергались взаимному анализу с целью оклеветать народ или подавить его ложными обвинениями.

Ключевые слова: хлопковое дело, пресса, группа Гдляна и Иванова, пресс-релизы, несправедливо обвиненные, клевета.

Abstract: In this article, the media coverage, results, and consequences of the “cotton case” and “Uzbeks case” carried out by the investigative team led by Gdlyan and Ivanov in Uzbekistan in 1983-1989 are studied. At the same time, articles published on this topic in the periodical press were mutually analyzed to slander the people or repress them with false accusations.

Key words: cotton case, press, Gdlyan and Ivanov group, press publications, unjustly accused, slander.

Ma’lumki, mustabid tuzum faqat jadidlarni yo‘q qilish bilan cheklanib qolmagan. O‘tgan asrning 80-yillarida ham minglab vatandoshlarimiz turli bo‘htonlar bilan qamoqqa olingan, xo‘rlangan.

“Bugun ham yo‘lda o‘ylanib kelyapman. 30-yillarni eski tarix desa, “paxta ishi”-chi?! Yetakchilarimizni qatag‘on qilish uchun soxta ayblovlar o‘ylab chiqarishdi-ku. Boshqa respublikalarda yo‘qmidi kamchilik? Bunday alamli voqealarni hech qachon unutib bo‘lmaydi. Bugungiday bayramlarda, tinch-osoyishta kunlarda shularni ham yuragimizdan o‘tkazib, yoshlarimizga etkazishimiz kerak”, — deya ta’kidladi Prezident Shavkat Mirziyoyev 31 avgust kuni erta tongda Shahidlar xotirasi xiyobonida qatag‘on qurbonlarini yod etish marosimidagi nutqida[1].

Darhaqiqat, o‘tgan asrning 80-yillari o‘rtalarida xalq orasida, qayerda ochiq-oydin, qayerda shivir-